01/20-209-son
2026-yil 26-oktabr

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Qishloq xo‘jaligi vaziri – Xavflarni boshqarish qo‘mitasi raisi

ASLIGA TO‘G‘RI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI * DEVONXONA

_____ I. Abduraxmonov
“__” -oktabr 2026-yil

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining Xavflarni boshqarish qo‘mitasi yig‘ilishi
BAYoNI 20-209-son

2026-yil “__”-oktabr Qibray tumani

Raislik qiluvchi: – B.Oxunov – Xavflarni boshqarish qo‘mitasi (Qo‘mita) raisi o‘rinbosari

Ishtirok etdilar: – Qo‘mita a’zolari, kotib, vazirlik tarkibiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlaridan taklif etilgan mutaxassislar

KUN TARTIBI:

Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining faoliyati va maqsadli ko‘rsatkichlar (indikatorlar)ga erishish bilan bog‘liq aniqlangan moliyaviy va boshqa xavflar va ularni bartaraf etish choralari to‘g‘risida.

(Oxunov, Qulmirzaev, Pardaev, Burxanov, Teshabaev, Ashurov, ... Oxunov)

Qo‘mita raisi o‘rinbosari B.Oxunov yig‘ilishni ochib, vazirlik tizimida xavflarni barvaqt aniqlash, baholash, ularni kamaytirish va monitoringini yuritish vazirlikka yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishning muhim sharti ekanligini ta’kidladi.

Yig‘ilish raisi Qishloq xo‘jaligi vazirining 2026-yil 14-sentabrdagi 370-son buyrug‘i bilan vazirlik tizimida xavflarni boshqarish jarayonida aniqlangan xavflarning baholanishi, chora-tadbirlar rejasining ishlab chiqilishi va bajarilishi hamda xavflarni boshqarish jarayoni bilan bog‘liq audit tadbirlarini o‘tkazish belgilanganligini qayd etdi.

So‘z Xavflarni boshqarish qo‘mitasi ishchi organi — Ichki audit boshqarmasi boshlig‘i F.Ashurovga berildi.

F.Ashurov o‘z axborotida 370-son buyruq ijrosi doirasida xavflarni boshqarish jarayoni o‘rganilgani, avvalgi Qo‘mita yig‘ilishlari bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejalari ijrosi yuzasidan hisobotlar tahlil

qilingani, hisobot taqdim etmagan, umuman xavf aniqlamagan va qo‘shimcha xavf kiritmagan tarkibiy bo‘linmalar holati o‘rganilganini ma’lum qildi.

Shuningdek, 2026-yil 21-avgust kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligi mas’ul xodimi A.Jabborov ishtirokida o‘tkazilgan seminarda xavflarni aniqlash, baholash, xavflar reestrini shakllantirish, chora-tadbirlar belgilash va monitoringini yuritish masalalari tushuntirilgani, 2026-yil 27-avgustdagi Baholash komissiyasi bayoni bilan tarkibiy bo‘linmalarga aniq topshiriqlar berilgani qayd etildi.

Biroq, mazkur seminar va berilgan topshiriqlarga qaramasdan, ayrim tarkibiy bo‘linmalar tomonidan xavflarni aniqlash, baholash, reestr va chora-tadbirlar rejasini shakllantirish ishlari to‘liq bajarilmagani, ayrim hollarda ijro yuzasidan ma’lumotlar taqdim etilmagani ta’kidlandi.

Ishchi organ tomonidan Ichki audit boshqarmasi va Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan aniqlangan qo‘shimcha xavflar umumlashtirilgani, ular bo‘yicha xavflar reestri va chora-tadbirlar rejasi loyihasi tayyorlangani ma’lum qilindi.

Xavflar reestri loyihasiga jami 10 ta o‘rta darajadagi xavf kiritilgan bo‘lib, shundan 4 tasi Ichki audit boshqarmasi faoliyatiga, 6 tasi Toshkent davlat agrar universitetining qabul jarayoni va abiturientlar bilan ishlash yo‘nalishiga oid xavflardan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tildi.

Shundan so‘ng, Budjet qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish bo‘limi boshlig‘i N.Toshmatov so‘zga chiqib, vazirlik tizimida xavflarni boshqarish jarayonini samarali tashkil etishda joylardagi bosh auditorlarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

Xususan, Toshkent davlat agrar universiteti bosh auditori Eshmurodov Javlon Davron o‘g‘li hamda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti bosh auditori Inamov Farxodjon Yakubjanovich tomonidan xavflarni aniqlash, baholash, xavflar reestrini shakllantirish hamda ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi loyihalarini tayyorlash jarayonida faol ishtirok etilganligi qayd etildi.

N.Toshmatov mazkur xodimlarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyati boshqa tizim tashkilotlari uchun ijobiy namuna bo‘lishi lozimligini bildirib, vazirlik tizimida xavflarni boshqarish jarayonida faol ishtirok etayotgan xodimlarni belgilangan tartibda rag‘batlantirish maqsadga muvofiqligini taklif qildi.

Statistik tahlil va prognozlashtirish bo‘limi mas’uli N.Xo‘jaqulov so‘zga chiqib, Baholash komissiyasining 2026-yil 27-avgustdagi 01/25-3-164-son bayoni bilan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari KPI ko‘rsatkichlariga jami KPIning 5 foizini tashkil etuvchi “Xavflarni boshqarish jarayoni natijadorligi” mezoni kiritilganini, ushbu mezon bo‘yicha baholash jadvali Qo‘mita muhokamasi natijalaridan kelib chiqib shakllantirilishi lozimligini bildirdi.

Yig‘ilish ishtirokchilari xavflar reestri, chora-tadbirlar rejasi loyihasi va KPI baholash jadvali yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr va takliflarni inobatga olib, yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. Xavflarni boshqarish qo‘mitasi ishchi organi — Ichki audit boshqarmasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ichki audit boshqarmasi va Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan aniqlangan qo‘shimcha xavflar reestri 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qo‘shimcha xavflarni kamaytirish, oldini olish va bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Toshkent davlat agrar universiteti rektori hamda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektoriga xavflarni boshqarish jarayonida faol ishtirok etgan quyidagi xodimlarni amaldagi tartibda rag‘batlantirish choralarini ko‘rish tavsiya etilsin:

— Toshkent davlat agrar universiteti bosh auditori Eshmurodov Javlon Davron o‘g‘li;

— Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti bosh auditori Inamov Farxodjon Yakubjanovich.

Yig‘ilish kotibi N. Toshmatov

KZG4281

Қишлоқ хўжалиги вазирлиги
Хавфларни бошқариш қўмитасининг
“26” august 2026 йилдаги
01/20-209 -сон йиғилиш баёни
1-иловаси

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг

ХАВФЛАР РЕЕСТРИ

Хавф тури*	Хавф тоифаси*	Ташкилий тасниф**	Хавф тартиб рақами	Хавф номи	Хавф даражаси	Хавф баҳоси	Хавф эгаси
1	03	082	0001	Ҳисоб палатасининг “Масофавий аудит” платформаси орқали аниқланган ҳолатлар бўйича назоратнинг масъул раҳбарларга ўз вақтида ўтказилмаслиги	3,9	ЎРТА	Ички аудит бошқармаси
1	03	082	0002	“Давлат аудити” платформасидан фойдаланиш ва ундаги маълумотлар таҳлили тизимли йўлга қўйилмаслиги	3,9	ЎРТА	Ички аудит бошқармаси
1	03	082	0003	Ички аудит бошқармасининг 2027 йил иш режасига юқори хавфли объектлар тўлиқ қамраб олинмаслиги	3,1	ЎРТА	Ички аудит бошқармаси
1	03	082	0004	Ички аудит бошқармасининг 2027 йил учун йиллик иш режаси белгиланган муддатда	3,4	ЎРТА	Ички аудит бошқармаси

				шакллантирилмаслиги ва Ҳисоб палатаси билан келишиш кечикиши			
1	03	082	0005	қабул режасини шакллантириш бўйича маълумотлар ўз вақтида йиғилмаслиги ёки кечикиши	3,4	ЎРТА	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат
1	02	082	0006	абитуриентлар билан ишлаш бўйича ички тартиб-таомиллар етарлича белгиланмаганлиги	3,2	ЎРТА	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат
1	03	082	0007	абитуриентлар билан ишлаш жараёнида вазифа ва ваколатлар аниқ тақсимланмаганлиги	3,4	ЎРТА	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат
1	03	082	0008	абитуриентлар билан ишлаш бўйича маълумотлар ўз вақтида йиғилмаслиги ёки кечикиши	3,3	ЎРТА	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат
1	02	082	0009	абитуриентлар билан ишлаш бўйича маълумотларнинг нотўғри, тўлиқ эмас ёки зиддиятли юритилиши	3,4	ЎРТА	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат
1	02	082	0010	абитуриентлар билан ишлаш жараёнида инсон омилига ортиқча боғлиқлик	3,4	ЎРТА	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси

KZG4281

Қишлоқ хўжалиги вазирлиги
Хавфларни бошқариш қўмитасининг
“26” august 2026 йилдаги
01/20-209 -сон йиғилиш баёни
2-иловаси

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг хавфларни камайтириш (олдини олиш ва бартараф этиш) юзасидан

ЧОРА-ТАДБИРЛАР РЕЖАСИ

№	Хавф номи*	Чора-тадбир номи*	Амалга ошириш механизми	Бажариш муддати	Масъул бўлинма
1.	Ҳисоб палатасининг “Масофавий аудит” платформаси орқали аниқланган ҳолатлар бўйича назоратнинг масъул раҳбарларга ўз вақтида ўтказилмаслиги	“Масофавий аудит” платформаси бўйича масъуллик ва назоратни қайта тақсимлаш	Платформада аниқланган ҳолатлар бўйича администраторлик ва ижро назорати масъулиятини 2027 йил 1 январдан Масофавий аудитни амалга ошириш ва хавф-хатарни баҳолаш бўлими бошлиғи Ж.Раҳматиллаевга ўтказиш юзасидан Ҳисоб палатасига хат юбориш.	01.12.2026 йил	Ички аудит бошқармаси
2.	“Давлат аудити” платформасидан фойдаланиш ва ундаги маълумотлар таҳлили тизимли йўлга қўйилмаслиги	“Давлат аудити” платформасидан фойдаланиш ва назоратни масъул шахсга бириктириш	Платформадан фойдаланиш ва ундаги маълумотлар таҳлили бўйича масъулликни Бюджет қонунчилигига риоя этилиши устидан назоратни амалга ошириш бўлими бошлиғи Н.Тошматовга бириктириш юзасидан Ҳисоб палатасига хат киритиш.	01.12.2026 йил	Ички аудит бошқармаси
3.	Ички аудит бошқармасининг 2027 йил иш режасига юқори хавфли объектлар тўлиқ қамраб олинмаслиги	Аудит объектларини хавф даражаси асосида танлаш тартибини	13 турдаги хавфлар бўйича маълумотлар базасини шакллантириш, тизим ташкилотларидан зарур маълумотларни сўраш ва иш режа лойиҳасига юқори хавфли объектларни устувор тартибда киритиш.	01.11.2026 йил	Ички аудит бошқармаси

		кучайтириш			
4.	Ички аудит бошқармасининг 2027 йил учун йиллик иш режаси белгиланган муддатда шакллантирилмаслиги ва Ҳисоб палатаси билан келишиш кечикиши	2027 йил учун йиллик иш режа лойиҳасини ўз вақтида шакллантириш ва келишиш	Иш режа лойиҳасини 2026 йил 1 декабрга қадар шакллантириш, 5 декабрга қадар Ҳисоб палатасига келишиш учун юбориш ҳамда ижро муддатлари бўйича масъулларни белгилаш.	05.12.2026 йил	Ички аудит бошқармаси
5	қабул режасини шакллантириш бўйича маълумотлар ўз вақтида йиғилмаслиги ёки кечикиши	Қабул режасини шакллантириш учун зарур маълумотларни ўз вақтида йиғиш ва назорат қилиш тизимини такомиллаштириш	Қабул режасини шакллантириш учун масъул таркибий бўлинмалар ва ходимларни белгилаш, маълумотларни тақдим этишнинг аниқ муддатларини ўрнатиш, белгиланган муддатларда маълумотлар келиб тушишини мунтазам мониторинг қилиш. Кечикиш ҳолатлари юзага келганда масъул ходимларга тезкор эслатмалар юбориш ҳамда маълумотларни ўз вақтида тақдим этилишини назоратга олиш.	01.01.2027 йил	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат
6	абитуриентлар билан ишлаш бўйича ички тартиб-таомиллар етарлича белгиланмаганлиги	Абитуриентлар билан ишлаш жараёнини тартибга солувчи ички тартиб-таомилларни ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш.	Абитуриентлар билан ишлашнинг барча босқичларини қамраб олган ички тартиб-таомилларни ишлаб чиқиш, ҳар бир босқич бўйича масъул ходимларни белгилаш, уларнинг вазифа ва ваколатларини аниқлаш, ҳужжатларни қабул қилиш, маълумотларни текшириш, маслаҳат бериш ва мурожаатларни кўриб чиқиш тартибини белгилаш ҳамда мазкур тартибларга риоя этилишини мунтазам назорат қилиш.	01.01.2027 йил	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат

KZG4281

7	абитуриентлар билан ишлаш жараёнида вазифа ва ваколатлар аниқ тақсимланмаганлиги	Абитуриентлар билан ишлаш жараёнида вазифа ва ваколатларни аниқ белгилаш ва масъулиятни тақсимлаш.	Абитуриентлар билан ишлаш жараёнининг ҳар бир босқичи бўйича масъул таркибий бўлинмалар ва ходимларни белгилаш, уларнинг вазифа, ҳуқуқ ва ваколатларини аниқ тақсимлаш, масъулларнинг ўзаро ҳамкорлик тартибини белгилаш ҳамда вазифалар ижроси устидан мунтазам назорат ўрнатиш. Вазирлик ва идораларнинг тегишли талаблари ҳамда ички ҳужжатлар асосида масъулиятлар тақсимотини қайта кўриб чиқиш ва заруратга кўра янгилаб бориш.	01.01.2027 йил	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат
8	абитуриентлар билан ишлаш бўйича маълумотлар ўз вақтида йиғилмаслиги ёки кечикиши	Абитуриентлар билан ишлаш бўйича маълумотларни ўз вақтида йиғиш ва назорат қилиш тизимини такомиллаштириш.	Абитуриентлар билан ишлаш жараёнида зарур маълумотларни тақдим этиш учун масъул таркибий бўлинмалар ва ходимларни белгилаш, маълумотларни тақдим этишнинг аниқ муддатларини ўрнатиш, маълумотларни белгиланган муддатларда йиғилишини мунтазам мониторинг қилиш. Кечикиш ҳолатларида масъул ходимларга тезкор эслатмалар юбориш ва маълумотларни белгиланган муддатда тақдим этилишини назоратга олиш.	01.01.2027 йил	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат
9	абитуриентлар билан ишлаш бўйича маълумотларнинг нотўғри, тўлиқ эмас ёки зиддиятли юритилиши	Абитуриентлар бўйича маълумотларнинг тўғрилиги, тўлиқлиги ва ишончлилигини таъминлаш тизимини такомиллаштириш.	Абитуриентлар бўйича маълумотларни ягона шакл ва белгиланган талаблар асосида юритиш, масъул ходимлар томонидан маълумотларнинг тўғрилиги ва тўлиқлигини текшириш, турли манбалардаги маълумотларни ўзаро солиштириш ҳамда аниқланган хато, камчилик ва зиддиятларни ўз вақтида бартараф этиш. Якуний маълумотларни масъул шахслар томонидан тасдиқлаш ва мунтазам назорат қилиб бориш.	01.01.2027 йил	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси/деканат

KZG4281

10	абитуриентлар билан ишлаш жараёнида инсон омилига ортиқча боғлиқлик	Абитуриентлар билан ишлаш жараёнларини автоматлаштириш ва инсон омили таъсирини камайтириш.	Абитуриентлар билан ишлашда такрорланувчи ва стандарт жараёнларни электрон тизимлар орқали амалга ошириш, маълумотларни ягона электрон базада юритиш, маълумотларни киритиш ва текшириш жараёнларида автоматик назорат механизмларини жорий этиш. Ходимларнинг вазифа ва ваколатларини аниқ белгилаш, муҳим қарорларни икки босқичли текширув асосида амалга ошириш ҳамда бажарилган ишлар бўйича электрон назорат ва ҳисобдорлик тизимини йўлга қўйиш.	01.01.2027 йил	Тошкент давлат аграр университети, Қабул комиссияси

KZG4281